

This is not registered version of TotalDocConverter

- Sunboshin ko'rganidan keyin sut beza kerak deb o'ylaydi. Bir echkicha ham himmati yo'q, shuni soqqunchayam enamdan emgan sutim og'zimga keladi. Mendan boshqani yoniga yo'latmaydi-ya, qirilgur. Yana yil oralatib qisir qoladi, jonimga tegib ketdi.
- Guljamol qarg'ana-qarg'ana molxonadan chiqib keldi. Xotining javrashidan Boboqul sigiri yana bir hunar ko'rsatganini sezdi.
- Savil qolgur, satilning ichiga oyog'ini tiqib oldi. Shuncha qiynalib soqqanim bir qoshiq sutniyam huzurini pishagingiz ko'radi endi, - jahl bilan sutni konserva qutiga ag'dardi Guljamol.
- Hozir mol arzon, yem qimmat, odamlar boqolmay molini suv tekinga sotyapti. Sabr qil enasi, qish chiqsin, sotib boshqa siyir obberaman, xotinini ovutgan bo'ldi Boboqul.
- Siyiringizni bu qishloqning odami omaydi, tepong'ich, suzong'ichligini hamma biladi, ustiga-ustak qo'tir. Tunov kun Nazira kelin sizlarga itning ham keragi yo'q, siyiringiz itdan ham yomon deb rosa kuldi.
- E, kim olaman desa qo'sh qo'llab tutqazardim bunday siyirni, - deb uf tortdi Guljamol.
- Ota, - gapga aralashdi Eshmurov, - molbozorga olib chiqsak-chi? Bir-ikki hafta kunjara berib yaxshilab boqaman, semirsa balki qo'tiriyam ketib qolar?
- O'g'lining gapidan Boboqul ham o'ylanib qoldi.
- Bo'masa, xotin, ertadan sog'ma, boquvga solamiz. Buzovini ayiramiz, bedani tamini bildi, qiynalmaydi endi. Ulim, sen qo'tiriga kun ora chuchitilmagan moydan surt, bir oy-yarim oyda tuzalib qoladi.
- Oradan bir oy o'tar-o'tmas sigir yaltirab semirib qoldi. Ammo belidagi qo'tiri tuzalmadi. Bu orada Haydar boboning g'unajini sotiladigan bo'lib qoldi. Guljamol otasiga sigirni bir haftadan keyin olamiz, jo'rangizni ko'ndiring deb tayinlab keldi.
- Shu bozor siyirni sotmasangiz bo'lmaydi, otamga aytib keldim, siyirdan quruq qolmaylik. Qanchaga sotsangiz-soting, yetmasa qarz olamiz.
- Bo'пти, shu haftadan qoldirmayman, - vada berdi Boboqul.
- Bozor kuni ota-bola tong qorong'usida molni haydab ketishdi. Kim echki sotgan, kim qo'y. Mol oluvchi-yu, sotuvchidan dallol ko'p. Qorong'uda yaxshi ko'rmagan ekan, Boboqulning sigiriga ko'zi tushib tanimay qoldi. To'sday qop-qora, yaltillagan, tirsillagan.
- Ulim, siyirni nima bilan cho'miltirding, qo'tiriyam bilinmay qopti-ya?
- Yana aytib yurmang, ota, enamni ipak bo'yog'i bilan bo'yadim, qo'tiriga po'stakdan kesib yopishtirdim.
- Boboqul kulib yubordi.
- Enang kecha po'stagimni bir chetini sichqon kamirib ketibdi, qaytishda margimush olib keling deb tayinlagandi. Lekin bozordagilar bilib qolishsa o'zingdan ko'r.
- Boboqul bozor aylanib narx-navoni bilgach, sigirni sakkiz yuz mingga narxladi. Bir ozdan so'ng o'rta bo'yli, miqtigina, qorachadan kelgan bir kishi keldi.
- Aka, qancha deyapsiz?
- Shunday deb sigirning u yoq-buyog'idan aylanib belidan ushladi. Boboqul xaridorning qo'li po'stakka tegib sidrilib tushsa deb qo'rqqanidan rangi oqarib ketdi.
- Sakkiz yuz ming, aka, - dedi Eshmurod, so'ng otasiga xavotir olmang deganday imo qildi.
- Ha, sakkiz yuz ming deyapmiz, uka, - deya Boboqul ham tasdiqlagan bo'ldi.
- Aka, muncha pulga buzog'li sigir beradi-ku, sal pastroq tushing.
- Xaridor sigirning og'zini ochib tishlarini ko'ra boshladi.
- Uka, bozor ko'targaniga sotamiz-da, buyam kuzga borib bolalaydi, - deb dadillashdi Boboqul.
- Qisriga o'xshaydi-ku, kuzda bolalaydigan sigirning qorni bilinib qoladi, muningiz tep-tekis-ku?
- Uka, qiyshiqmi-tekismi, siyirimizning narxi shu, olsangiz oling, olmasangiz, birov yarim xaridor chiqib qolar.
- Bu kishining savdolashishidan dallolligi bilinib turardi. Boboqulning qo'lini tutganicha 750 ming, boriga baraka, aka, deya siltayverib shilib yuborayozdi. Boboqul ham yo'q deb turib oldi. Oxiri 770 mingga kelishishdi.
- Ota-bola pulni sanab olgach xursand bo'lib uyga qaytishdi. Ertasi Haydar boboning sigirini sotib olishdi.
- Guljamolning og'zi qulog'ida, molxonani tutunga to'ldirib isiriq tutatdi, so'ngra sigir sog'ishga tutindi. Bir pas o'tar-o'tmas satilning taraqlagani-yu, gurs etgan tovush eshitildi.
- Ha, qirg'inginaga ketgur, siyir bo'lmay, ado bo'l, yomg'irdan qochib do'lga tutildim-ku, otasi.
- Ko'ylagi tappi-yu, shiptirga belangan Guljamol yig'lagandan beri bo'lib molxonadan chiqib keldi. O'g'li bilan Boboqul bir-biriga qaraganicha na yig'lashni, na kulishni bilar edi. Guljamol qarg'ana-qarg'ana uyga kirib kiyimini alishtirib chiqdi.
- Buni oldida o'zimning siyirim qo'ydek yuvvosh ekan-a. Qani yuringlar, bu shaytondan to'raganga o'zimning kuchim yetmaydi.
- Begona qilayotgandir-da, enasi.

Boboqul o'g'li bilan xotiniga ergashdi. Ikkovlon sigirning oyog'ini bog'lashdi, Guljamol bir amallab sog'ib oldi. Ammo sigir har kuni "begona qilaverganidan uni uchchovlon sog'adigan bo'lishdi.